

---

## **MILLIY LIBOS - MILLAT KO'RKI.**

Toshloq tumanida joylashgan 2-umumta'lim maktablar zalida "Milliy libos millat ko'rki" mavzusida O'zbekona kiyinish madaniyatini targ'ib qilish, zamonaviy milliy moda sanoatida o'zbekona amal qilish, milliy an'analarimizni keng targ'ib qilish orqali usulda, urf-odat va qadriyatlarimizga xos bo'limgan kiyinish uslublariga taqlidning oldini olish, yoshlarda milliy kiyinish madaniyatini shakllantirish, ta'lif muassasasida kiyinish odobi va me'yorlariga rioxha qilish haqida so'z bordi.

Tadbirda so'z olgan Toshloq tumani oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Umidaxon Marasulova hamda Viloyat bosh imom xatibining xotin-qizlar masalalari bo'yicha yordamchisi Xilolaxon Komilovalar milliy liboslarning jozibasi, undagi ranglar uyg'unligi va salomatlik uchun ham foydali ekanligi, milliy matolarimiz hisoblangan atlas, adres va beqasam matolari o'zida ko'p yillik tariximizni aks ettirishi va asrlar davomida kishilar hayotiga jilo berib kelganligi haqida aytib o'tdilar.

Tadbir doirasida mahalliy dizaynerlar tomonidan yaratilgan milliy liboslar namoyishi o'tkazildi. Shuningdek, tadbir davomida bolalar musiqa san'at maktabi jamoalarining chiqishlari yig'ilganlarga hush kayfiyat baxsh etdi.

2025-01-10 14:19:17